

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MAS'ULIYAT HISSINI SHAKLLANTIRISH

Usmonnazarova Shoira Shuhrat qizi

Buxoro davlat universiteti talabasi

usmonnazarovas@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada siz boshlang'ich sinf o'quvchilarini mas'uliyatli qilib tarbiyalash qanchalik muhim va dolzarb ekanligi haqida ma'lumotga ega bo'lasiz. Hamda bu jarayon qanday olib borilishi haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** o'qituvchi, o'quvchi, ota-ona, bola, ilm, talim-tarbiya, maktab.*

РОЛЬ РОДИТЕЛЕЙ В ОБРАЗОВАНИИ ДЕТЕЙ

***Аннотация:** В этой статье вы получите информацию о том, насколько важно и актуально воспитывать учащихся начальной школы ответственным образом.*

***Ключевые слова:** учитель, ученик, родитель, ребенок, наука, воспитание, школа.*

ROLE OF PARENTS IN CHILD EDUCATION

***Abstract:** In this article, you will get information about how important and relevant it is to raise elementary school students responsibly.*

***Key words:** teacher, student, parent, child, science, education, school.*

KIRISH

Mas'uliyatni shaxsning ixtiyoriy sohasidagi eng murakkab hodisalardan biri deb hisoblash kerak. Bugungi davrda har bir bolani mas'uliyat hissi bilan tarbiyalash har biro ta-ona hamda o'qituvchi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Kelajakda farzandining jamiyatda munosib o'rin egallashini istagan ota-onalar farzand tarbiyasiga be'etibor emas.

Maktab – yosh avlodni tarbiyalash tizimining asosiy bo‘g‘ini. Bola ta’limining har bir bosqichida tarbiyaning o‘ziga xos tomoni ustunlik qiladi. Kichik maktab o‘quvchilarining tarbiyasida axloqiy tarbiya shunday bo‘ladi: bolalar oddiy axloq me’yorlarini o‘zlashtiradilar, turli vaziyatlarda ularga rioya qilishni o‘rganadilar. Axloqiy xulq-atvorning shakllanishi bolalarning ko‘p qirrali faoliyati (o‘yinlar, o‘qish) jarayonida, ular turli vaziyatlarda tengdoshlari bilan, o‘zlaridan kichikroq bolalar va kattalar bilan bo‘lgan munosabatlarda sodir bo‘ladi.

O‘quv mashg‘ulotlarida va tengdoshlar jamoasida, yosh o‘quvchi, birinchi navbatda, mustaqillik, o‘ziga ishonch, mas’uliyat, qat’iyatlilik, chidamlilik kabi irodali xarakterli xususiyatlarni shakllantiradi.

TADQIQOT METODI VA METODOLOGIYASI

Bugungi kunda har bir bolani qilayotgan ishlariga ,berilgan vazifalarni bajarishga ,o‘z hayotiga hamda ertasiga mas’uliyat bilan yondashishini o‘rgatish bizning oldimizda turgan eng ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shunday ekan bu har bir farzandning ota-onasi shuningdek ustoz hamda murabbiylari zimmasida turadi. Chunki bola kunning yarmisini uyda o‘tkazsa ,qolgan yarmini esa maktabda ya’ni sinfdoshlari hamda ustozlari atrofida o‘tkazadi. Bola uyda bo‘lgan vaqtda onalarimiz uy yumushlarini bajarishi uchun ro‘yxat tuzib berishimiz kerak. Bola bu ro‘yxatda ko‘rsatilgan vazifalarni bajarishi kerak. Shuni unutmasligimiz kerakki, bolaning yoshidan qat’iy nazar vazifalarning natijasi ulardan so‘ralishi kerak. Shunda bola chin dildan yumushlarni bajarishga harakat qiladi. Aks holda esa ,tabiiyki erkalik qilib ,bergan yumushlaringiz va say-harakatingiz bekor ketishi mumkin. Vaqt o‘tkan sayin sekinlik bilan bajargan vazifalarining sifatiga ham qarab boriladi va shu bilan birga boladan ham talab qilinadi. Bu bolani mas’uliyat hissi bilan katta bo‘lishiga yordam beradi. Mas’uliyatli bola esa hech bir ishda va hayot yo‘lida qoqilmaydi. Bundan tashqari biz bolaga erkinlik orqali qilishi kerak bo‘lgan vazifalar ham berib borishimiz kerak. Ya’niki, bajarilishi kerak bo‘lgan yumushni bolaning ixtiyoriga tashlab qo‘ying. Mas’uliyatni his qilgan bola ,albatta bu yumushni o‘z vaqti hamda o‘z o‘rnida bajaradi.

Shu bilan birga maktab muhiti hamda o'qituvchi ham bola tarbiyasida juda katta rol o'ynaydi. Chunki bola kunning yarmi ba'zan undan ham ko'prog'ini maktabda o'tkazadi. Bola maktabda bo'lgan vaqtida jamoaviy o'yinlarni tashkillashtirish bolani mas'uliyatni his qilib katta bo'lishida juda katta yordam beradi. Chunki bola jamoaning g'alabasi uchun kurashadi, bor kuchini sarflaydi, jamoa a'zolarining hurmatini joyiga qo'yadi. Asosiysi "Hamma bir kishi uchun, bir kishi hamma uchun" naqling ma'no va mazmunini anglab yetkan holda harakat qilari. Shu sababli o'qituvchi bolalar bilan jamoaviy o'yinlar tashkillashtirib turishi kerak.

Maktabda navbatchilikni tashkillashtirish ham bolani mas'uliyatli qilib tarbiyalashga juda katta yordam beradi. Chunki sinfda navbatchilikka navbati kelgan o'quvchi o'zidan bilgan holda xona tozaligiga e'tibor beradi va boshqa topshirilgan vazifalarni ham bajaradi.

TADQIQOT NATIJASI.

Shak-shubhasiz, ota-ona, oila, mahalla, maktablar bolalar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda bolani chiroyli odob-axloqli, ilmi, tarbiyali qilib voyaga yetkazish davlat miqyosidagi dolzarb masala hisoblanadi. "Bir bolaning tarbiyasiga yetti mahalla ota-ona" - deganlari ham bejiz emas.

Bolani tarbiyalashda agar maktab yoshida bo'lsa ota-ona va maktab hatto mahalla ham doimo yaxshi yo'lga qo'yilar ekan, o'sha oila, o'sha mahalla gullab-yashnaydi. Ammo hozirgi kunda bolalarning tarbiyasiga e'tibor bermayotgan kishilar ham ko'p uchraydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida bolalar tarbiyasida mahallaning o'rnini kamayib borayotganligi, ma'naviyatimiz uchun eng katta xavf – aksariyat odamlarimizdagi loqaydlik va beparvolik kuchayib borayotganligini qayd etdilar". Haqiqatdan ham, kundan kunga bunday insonlar soni ortib bormoqda. Yana shuni alohida takidlash kerakki, hozirgi yoshlar ham kattalar tanbeh berganda "sizga nima?", "bu mening ishim, ishimga aralashmang", "kimsiz o'zi menga aql menga aql o'rgatadigan?" zaylidagi gaplarni

aytishyapti. Bu ham tarbiyasizlikning bir namunasidir. Aynan shu inson oilada noto‘g‘ri tarbiya topgan yoki tarbiyasining qaysidir joyida xatolik ketgan.

XULOSA

Xullasa shuki, bolaning kamol topishi uchun o‘qituvchi ham, ota-ona ham xatto o‘sha bolaning o‘zi ham harakat qilishi kerak ekan. Shundagina o‘‘sish bo‘‘ladi, natija bo‘‘ladi. Bolani tarbiyalashda ota-onaning o‘‘rni beqiyosdir. Ota-ona o‘‘z farzandini kamoli uchun uning tarbiyasiga, ilm olishiga e‘tiborli bo‘lishi kerak. Jamiyat taraqqiy etmog‘i uchun tarbiya samarali bo‘lishi kerak. Samarali tarbiya uchun ota-ona ilmi tarbiyasi bo‘lishi kerak. Farzandlarimiz ilmi va tarbiyasi bo‘lishi uchun o‘zimizni ma‘naviy rivojlantirishimiz va atrofdagi bolalar tarbiyasiga ham befarq bo‘lmaslik zarur.

REFERENCES

1. “Al-jome‘‘ as-sahih” asari. Ilm o‘rganmoq va ilm o‘rgatmoqning fazilati to‘g‘risidagi hadis.
2. Karamatova D.S. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarni ijodiy faoliyatga yo‘naltirish metodlari // Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS) ISSN: 2181-2484, Volume 1. ISSUE 2 2021. 4-9 b.
3. Karamatova D.S., Safarbayeva R.N., Murodova M.M. Bo‘lajak pedagoglarning integrativ yondashuv asosida ekologik madaniyatini shakllantirish // “Образование и наука в XXI веке” Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022. – В.950-955.